



SUITSIDLARNING STATISTIK TAHLILLARI

(2023-yil Andijon viloyatida o'z joniga qasd qilib vafot etgan shaxslar
bo'yicha o'tkazilgan ekspertizalar)

M.A. Dexkkonov, X.M. Imomov

Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy amaliy markazi Andijon filiali, Andijon
Davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston.

Rezyume.

2023 yil Andijon viloyatida o'z joniga qasd qilib vafot etgan shaxslar bo'yicha o'tkazilgan murda ekspertiza taxlil natijalari keltirilgan. Yil mobaynida jami 112 ta xolatda o'z joniga qasd qilish-suitsid xolatlari qayd etilgan. Mavjud xolatlarning uchdan ikki qismini erkaklar tashkil etgan. Hududlar bo'yicha viloyatning Andijon va Shaxrixon tumanlarida boshqa tumanlarga nisbatan ko'p uchragan.

Kalit so'zlar: murda ekspertizasi, o'z joniga qasd qilish, suitsid.

СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СУИЦИДОВ

(Экспертизы проведены на лицах, совершивших самоубийство в
Андижанской области в 2023 году)

М.А. Дехкконов, Х.М. Имомов

Андижанский филиал Республиканского научно-практического центра
судебно-медицинской экспертизы, Андижанский государственный медицинский
институт, Узбекистан.

Резюме.

Представлены результаты аутопсийного анализа лиц, совершивших самоубийство в Андижанской области в 2023 году. Всего за год зафиксировано 112 случаев самоубийств. Две трети заболевших составили мужчины. По регионам она чаще встречается в Андижанском и Шахриханском районах области, чем в других районах.

Vol. 2. Issue 4





Ключевые слова: вскрытие, самоубийство, суицид.

STATISTICAL ANALYSIS OF SUICIDES

(The examinations were conducted on individuals who committed suicide in the Andijan region in 2023)

M.A. Dekhkonov, Kh.M. Imomov

Andijan branch of the Republican scientific and practical center of forensic medical examination, Andijan state medical institute, Uzbekistan.

Resume.

The article presents the results of an autopsy analysis of individuals who committed suicide in the Andijan region in 2023. A total of 112 cases of suicide were recorded during the year. Two thirds of those infected were men. By region, it is more common in the Andijan and Shakhrikhan districts of the region than in other districts.

Keywords: autopsy, self-murder, suicide.

Dolzarbligi

Fuqarolarning salomatligi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada fuqarolarga malakali tibbiy yordam ko‘rsatilishi muhim o‘rin tutadi. Mazkur yordamni takomillashtirish masalalari turli soxa mutaxassislarining diqqat e‘tiboridadir. Bu borada fuqarolarga sud-tibbiy xizmat ko‘rsatish xam alohida o‘rin egallaydi. So‘nggi yillarda o‘z joniga qasd qilish bilan bog‘liq ekspertizalarning ko‘payishi kuzatilayapti. Ammo Andijon viloyatida suitsid xolatlari bo‘yicha o‘tkazilgan ekspertizalar lozim darajada o‘rganilmagan.

Taqdiqotning maqsadi - 2023 yilda Andijon viloyatida suitsid xolatlarida o‘tkazilgan murda ekspertiza materiallaring kompleks tahlil qilish.

Material va usullar

2023 yili Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy amaliy markazi Andijon filialida jami 823 ta murda ekspertizalar o‘tkazilgan bo‘lib ulardan 112 tasi o‘z

Vol. 2. Issue 4





joniga qasd qilish-suitsid xolatlarini tashkil etadi. Odatda suitsid xolatlar bilan bog'liq ekspertizalar o'tkazilishida ish materiallari o'rganiladi, marxumning qarindosh urug'laridan katamnez yig'iladi. Klinik laborator taxlillar olinadi va ekspert xulosasi rasmiylashtiriladi. Suitsid xolatlar hududlar kesimida o'rganildi. Yilning fasllari bo'yicha taqsimlandi, murdalarni jinsi va yoshi bo'yicha faqlandi xamda ularga statistik ishlov berildi.

Natija va taxlillar

Suitsid xolatlar yosh guruhleri bo'yicha o'rganilganda, ularning uchdan ikki qismi 30-50 yoshgacha bo'lgan fuqrolar hissasiga to'g'ri kelgan. Ayni paytda 14 yoshgacha bo'lgan bolalar 5,4% ni, 14-18 yosh bolalar 14,3% ni, 19-30 yoshlilar 21,4% ni, 50-70 yoshlilar 17,9% ni tashkil etgan. 70 yoshdan yuqori shaxslarda bunday xolat 0,89% ni tashkil etgan (jadval 1).

jadval 1

Suitsid holatlarini yosh guruhleri bo'yicha taqsimlanishi

No	yoshi	soni	%
1	14 yoshgacha	6	5,4
2	14-18 yosh	16	14,3
3	19-25 yosh	11	9,8
4	26-30 yosh	13	11,6
5	31-40 yosh	23	20,5
6	41-50 yosh	22	19,6
7	51-60 yosh	14	12,5
8	61-70 yosh	6	5,4
9	70 yoshdan yuqori	1	0,9
Jami		112	100






Taxlil natijalariga ko'ra jins bo'yicha barcha suitsidlarni ko'pchiligi erkaklar tomonidan amalga oshirilgan. (Rasm 2).

Rasm 2


Suitsidlarni jins bo'yicha taqsimlanishi



Suitsid holatlarni aksariyati yil fasllari bo'yicha ko'pincha bahor 30 ta (21,4%) va yoz oylarida 36 ta (32,1%) ko'p uchrashi aniqlandi, kuz va qish oylarida bunday xolatlar uchrashi kam kuzatilgan. Rasm 3.

Rasm 3

Yil fasllari bo'yicha suitsidlarni taqsimlanishi





Andijon viloyatida 14 ta tumanlar mavjud bo‘lib, suitsidlarni uchrashi tumanlar bo‘yicha taxlil qilindi. Natijalarga ko‘ra Andijon tumanida 12 ta (10,7%), Shaxrixon tumanida 12 ta (10,7%), Asaka tumanida 11 ta (9,8%), Izboskan tumanida 11 ta (9,8%) suitsid xolatlarini ko‘p uchrashi kuzatilgan bo‘lib, qolgan tumanlarda nisbatan kam uchrashi kuzatilgan.


Jadval 2

Suitsid holatlarini tumanlar bo‘yicha taqsimlanishi

No	Tumanlar	soni	%
1	Oltinko‘l	9	8,0
2	Andijon	12	10,7
3	Paxtaobod	9	8,0
4	Ulug‘nor	9	8,0
5	Bo‘ston	1	0,9
6	Qo‘rg‘ontepa	7	6,3
7	Jalaquduq	2	1,8
8	Xo‘jaobod	5	4,5
9	Buloqboshi	3	2,7
10	Marxamat	8	7,1
11	Asaka	11	9,8
12	Izboskan	11	9,8
13	Shaxrixon	12	10,7
14	Baliqchi	4	3,6
15	Andijon shaxar	7	6,3
16	Xonobod shaxar	2	1,8
	Jami	112	100

Rasm 4





Suitsidni kelib chiqish sabablari o'rganilganida aksariyat xolatlarni kelib chiqishi noma'lumligicha qolgan. Viloyatdagi barcha xolatlarda o'z joniga qasd qilish -suitsid holatlar o'zlarining yashash xonadonlarida o'z- o'zini osish ko'rinishida bo'lgan.

Xulosa. Shunday qilib suitsidlar bilan bog'liq sud-tibbiy ekspertiza materiallarining taxliliga asosan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Suitsidlar ayollarga nisbatan erkaklarda ko'p kuzatilgan.
2. Suitsidlarni aksariyati 30-50 yoshlar orasidagi shaxslarda kuzatilgan.
3. Yil fasllari bo'yicha baxor va yoz olarida suitsidlarni uchrash maromini ko'payishi qayd etilgan.
4. Suitsidlarni kelib chiqishi sabablari noma'lumligicha qolgan. Barcha suitsid xolatlarda o'z o'zini osish ko'rinishida bo'lgan.
5. Suitsid xolatlarini oldini olish uchun chora- tadbirlar ishlab chiqishda sud-tibbiy ekspertiza natijalarini inobatga olish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. G'iyosov Z.A. Sud-tibbiyoti, 2018. 121-128b.



2. Молин, Ю.А. Судебно-медицинская экспертиза повешения /Ю.А. Молин - СПб.: АНО ЛА «Профессионал», 2014. - 320 с.
3. Алябьев, Ф.В. Морфология надпочечников в случаях завершённого суицида /Ф.В. Алябьев, Ю.М. Падеров Ю.М., С.Ю. Кладов. - Томск: Томский государственный университет, 2005. - 142 с.
4. Джувалыков, Г.П., Практикум по судебной медицине / Г.П. Джувалыков, Д.В. Сундуков. - Астрахань-Москва, 2003. - С. 181-190.
5. Мельников О.В. Информационно-аналитическое обеспечение качества проведения судебно-медицинских экспертиз трупов в случаях механической странгуляционной асфиксии при повешении / О.В. Мельников, С.Б.Петров, А.Е.Мальцев, Б.А. Петров // Медицинская экспертиза и право. -2014.-№ 5.-С. 30-32.
6. Сундуков, Д.В. Судебно-медицинская оценка адаптационных патоморфологических изменений дыхательной системы в ранний период механической травмы: автореф. дис... докт.мед.наук: 14.00.24 / Сундуков Дмитрий Вадимович. - Москва, 2009. - 154 с.
7. Al-Hadi, H.A. Cardiac markers in the early diagnosis and management of patients with acute coronary syndrome / H.A. Al-Hadi, K.A. Fox // Sultan Qa-boos Univ Med J. - 2009. - Dec; 9(3): 231 - P. 46.
8. Batalis, N.I. The role of postmortem cardiac markers in the diagnosis of acute myocardial infarction / N.I. Batalis, B.J. Marcus, C.N. Papadea, K.A. Collins// J Forensic Sci. - 2010. - Jul; 55(4): 1088 -P. 91.
9. Bennett, B.L. Elevated cardiac troponin I level in cases of thoracic non-accidental trauma / B.L. Bennett, M. Mahabee-Gittens, M.S. Chua, R. Hirsch // Pediatr Emerg Care. - 2011. - Oct; 27(10): 941 - P. 4.
10. Зотов П.Б., Любов Е.Б., Герасименко В.И., Зотова Е.П., Петров И.М., Скрыбин Е.Г., Приленский А.Б. Уксусная кислота среди средств





суицидальных действий. Суицидология. 2020; 11 (1): 160-181.

[doi.org/10.32878/suiciderus.20-11-01\(38\)-160-181](https://doi.org/10.32878/suiciderus.20-11-01(38)-160-181)

11. Любов Е.Б., Зотов П.Б., Положий Б.С. Пандемии и суицид: идеальный шторм и момент истины. Суицидология. 2020; 11 (1): 3-38.

[doi.org/10.32878/suiciderus.20-11-01\(38\)-3-38](https://doi.org/10.32878/suiciderus.20-11-01(38)-3-38)

12. Wasserman D., Durkey T. Strategies in suicide prevention. In: D.Wasserman, C. Wasserman (eds). Oxford Textbook on Sui-cidology and Suicide Prevention. NY: Oxford University Press, 2009, pp.381-384.

13. EPA Section on Suicidolgy and Suicide Prevention. Available at:

<https://suicidologysection.org/>

14. WPA Section on Suicidology. Available at:

<https://www.wpanet.org/suicidology>

Avtorlar haqida:

©Dexkkonov Mashrabjon Abdubohiyevich – Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy amaliy markazi Andijon filiali (RSTEIAMAF), Andijon Davlat tibbiyot instituti.

O‘zbekiston, Andijon

©Imomov Xojiakbar Maxamadaliyevich – Andijon Davlat tibbiyot instituti, Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy amaliy markazi Andijon filiali (RSTEIAMAF),

O‘zbekiston, Andijon

